

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATKARIMOV SAPARBOY RAJABOVICH

**ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINING FRANSUZCHA TARJIMALARI
QIYOSIY TAHLILI VA BADIY MUQOBILLIK
(*Jan Pier Balp tarjimasi asosida*)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Matkarimov Saparboy Rajabovich

Alisher Navoiy g‘azallarining fransuzcha tarjimalari qiyosiy tahlili va badiiy muqobillik (*Jan Pier Balp tarjimasi asosida*).....3

Matkarimov Saparboy Rajabovich

Comparative analysis of French translations of Alisher Navo'is gazelles and artistic alternativeness (basel on the translation of J.P.Balp).....23

Matkarimov Saparbay Rajabovich

Сравнительный анализ французских переводов Алишера Навои и художественной альтернативность (по переводу Ж.П.Бальпа).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....50

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATKARIMOV SAPARBOY RAJABOVICH

**ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINING FRANSUZCHA TARJIMALARI
QIYOSIY TAHLILI VA BADIY MUQOBILLIK**
(Jan Pier Balp tarjimasi asosida)

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.1.PHD/FI2267 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasining www.urdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumaniyozov Zohid Otaboyevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sariyev San'atbek Matchonboyevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Jo'rayeva Malohat Muhamedovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning "22" may 2025-yil soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00; faks: (+99862) 224-67-00 e-mail: www.fil-ik.urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 2494 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00), e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" aprel da tarqatildi.

(2025-yil "29" aprel dagi 52 raqamli reestr bayonnomasi).



D.Q. G'ayipov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

S.S. Atajonov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
kotiibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

A.D. O'razboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligida tarjimaning nazariy va amaliy asoslari, tarjima tamoyillari va transformatsiyalari, tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari, tarjimada shakl va mazmun birligini saqlash masalasi, shuningdek, milliy koloritni ifodalovchi leksik birliklar tarjimasidagi muammolar turli aspektlarda yoritilgan. Bu borada G'arb tarjimashunoslari tomonidan amalga oshirilgan salmoqli ilmiy tadqiqot ishlari bugungi izlanishlarga zamin yaratib bergan.

Ma'lumki, har bir asar tarjimasidan ko'zlangan maqsad – biror xalqning eng yaxshi badiiy san'at asarini o'z ona tilida qabul qilish, shu orqali o'z xalqini boshqa madaniyat vakillari bilan tanishtirish, qardosh xalqlar madaniyatining eng yaxshi fazilatlarini ijodiy o'zlashtirish, o'z adabiyotida yaratilgan e'tiborga molik asarlarni boshqa xalqlar tiliga o'girish va ularni tanishtirishdan iborat. Badiiy asarning qimmati, avvalo, uning mazmuni – g'oyaviy fazilatlari, tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati, badiiy-estetik xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu yo'nalishda asliyatning milliy o'ziga xosligini tashkil etuvchi til birliklarini o'rganish, tarjimonning mutarjimlik mahoratini ochib berish tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Dunyo tarjimashunosligida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning samarasi o'laroq insoniyat ko'zga ko'ringan shoir va nosirlarning durdona asarlaridan tarjima orqali bahramand bo'lib kelmoqda. Bugungi globallashgan dunyoda ham tarjima asarlari xalqlar o'rtasida hamkorlik ko'priklarini qurishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgayotgani barchaga ma'lum haqiqatdir. Mutarjimlar mehnati bilan butun dunyoni zabt etgan, o'lmas, durdona asarlari orqali jahonda tanilgan allomalardan biri, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Yer yuzidagi ko'plab xalqlar buyuk mutafakkir ijodidan asliyat yoki tarjima orqali bahramand bo'lib kelmoqdalar. Navoiyshunoslik bo'yicha shu kungacha qilingan tadqiqot ishlarini sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi. Navoiy asarlari tarjimasining tadqiqi tarjimashunoslar oldidagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu borada, ya'ni Alisher Navoiy ijodi va faoliyatining o'rganilishi bo'yicha G'arbiy Yevropaning yuzdan ziyod olim va adiblari, tarjimon va noshirlari, sayyohlari va kutubxona mutasaddilari o'z hissasini qo'shganlar. Ingliz, rus, fransuz, ispan, italyan, venger, chex, bolgar, polyak, rumin va G'arbdagi boshqa mutarjim va sharqshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Shoir ijodining jahon tamadduni tarixida tutgan o'rnini haqqoniy baholamoq uchun, avvalambor, adib asarlarining turli xalqlar tillaridagi tarjimalarini tahlil qilish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan Navoiy asarlarining tarjimasi va talqinini keng yoritgan monografik tadqiqotlar bugungi kunda ham dolzarblik kasb etadi.

O'zbek tarjimashunosligida ham Alisher Navoiy asarlarining Yevropa tillariga qilingan tarjimalari, ularda asliyat va tarjimaning muvofiqlik masalalari, tarjima nuqsonlari va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, tarjima tanqidiga oid qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Hozirgi kunda tarjimada asliyatning o'ziga xosligi va tarixiyligining ifodasi, bu jarayonda tarjimon mahorati, so'z tanlash masalasi ilmiy zarurat sifatida qaralmoqda. Mumtoz janrlar tarjimasida tarjimonning

tutgan o'zni masalasi, shuningdek, adabiy asar tarjimasini lingvokulturologik va lingvopoetik jihatdan o'rganish tarjimashunoslik fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, tarjimaning amaliy va nazariy qonun-qoidalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy g'azallarining fransuz tiliga tarjimasini, tarjima birliklarining asliyatga muvofiqligini ta'minlashda tarjimonning mahoratiga doir ilmiy tadqiqotlar hozirgacha monografik shaklda amalga oshirilmagan. Tadqiqotimiz "milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy- tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash..."¹ siyosatining samarasi sifatida amalga oshirilganligi o'zbek va fransuz tillaridagi milliy-madaniy birliklarning o'xshash va o'ziga xos qirralarini ifodalovchi realiyalarning tarjima qilish usullarini o'rganishga bag'ishlangani bilan dissertatsiya mavzusining zarurati va ahamiyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish bo'yicha davlat buyurtmasi berish tizimining aniq mexanizmini joriy etish"² maqsadidagi qarorlari ham tanlangan mavzuning dolzarbligiga yana bir dalildir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari; 2018-yil 18-maydagi PQ-376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommaviylashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi "Taraqqiyot yo'limizning shiddati yana oshaveradi" mavzusidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/oz/lists/view/2228>

² Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek tilidagi durdonalarni chet tiliga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 376-son Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-3743182>

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilish darajasi. Jahon tarjimashunosligida Alisher Navoiy ijodi va faoliyati, asarlarining G‘arb tillariga tarjimalari, ularning yutuq va kamchiliklari, mutarjim tomonidan qo‘llanilgan tarjima usullari hamda tarjimonning so‘z tanlash mahorati masalalari 130 dan ortiq tadqiqotchilar tomonidan ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda muayyan tilning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, tarixiy, axloqiy tafakkur darajasini aks ettiruvchi milliy-madaniy birliklarni tarjimada saqlash, umuman, tarjimada adekvatlikni ta‘minlash kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan ³. Rus tarjimashunosligida N.V.Vladimirova, A.V.Fedorov, I.A.Kashkin, L.S.Barxudarov, Ye.M.Vereshchagin, V.G. Kostomarov, A.D.Shveytser, Z.G.Proshina kabi olimlar⁴ aslyatdagi milliy va davriy xususiyatlarga ega birliklar sifatida realiyalarning tasnifi va ularni tarjima qilish usullari masalasiga muhim ilmiy xulosalar berganlar. O‘zbek tarjimashunosligida esa G‘.Salomov, G.G‘ofurova, Q.Musayev, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova, E.Ochilov va boshqalar⁵ aslyat va tarjimaning muvofiqlik masalalari, tarjimadagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, shuningdek, tarjima tanqidi sohasining taraqqiy topishiga munosib hissa qo‘shganlar.

A.Navoiy va G‘arb masalasi yuzasidan rus sharqshunoslari M.Nikitskiy⁶, V.V.Bartold⁷, A.A.Semenov⁸, Ye.E.Bertels⁹ asarlarida ham qisman ilmiy munosabat bildirilgan. Jahon navoiyshunosligining shakllanishida dastlabki ilmiy

³ Larson M. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. – Lanham and New York: University Press of America, 1984. – 600 p.; Newmark P. A Text Book of Translation. – New York and London: Prentice Hall, 1988. – 200 p.; Baker M. In other words. – London: Routledge, 1992. – 317 p.; Gambier Y. Doubts and Directions in Translation Studies. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins, 2007. – 362 p.; Schäffner C. A roof is an umbrella: metaphor, culture and translation. Identity and Difference – Translation Shaping Culture. – Bern: Peter Lang AG, 2005. – P.49.

⁴ Владимиров Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. – Т., 1957. – С.66-67; Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1968. – 400 с.; Кашкин И.А. О методе и школе художественного перевода // Знамя, №10, 1954. – С.141-153; Кашкин И.А. В борьбе за реалистический перевод // Для читателя – современника (Статьи и исследования). М., 1977. – С. 464–502; Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М., «Междунар. отношения», 1975. – 240 с.; Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 1987. – 246 с.; Швейцер А.Д. Теория перевода Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – 215 с.; Прошина З.Г. Теория перевода. – Владивосток: Изд. Дальневост. ун-та, 2008. – 256 с.

⁵ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – 320 б; Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 236; Саломов Ф. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – 385 б.; Саляммов Г.Т. Литературные традиции и проблемы художественного перевода: Сопоставительно-стилистический и типологический анализ. – Дисс. ...докт. филол. наук. – Т., 1982. – 388 с.; Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. – Т.: Фан, 1973. – 159 с.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – 352 б.; Сирожиiddинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. Масъул муҳаррир О.М.Муминов. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – 166 б.; Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Т., 2014. – 287 б.

⁶ Никитский М. Эмир Низамин-дин Алишер в государственном и литературном его значении: магистерская диссертация. – СПб, 1856. – 104 с.

⁷ Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. Сочин В IX томах. – Москва: Наука, 1964, Т. II. Ч.2. – 250 с.

⁸ Семенов А.А. Взаимоотношения Алишера Навои и султана Хусейн-Мирзы // Исследования по истории культуры народов Востока: сб. в честь акад. И. А. Орбели. – М.–Л, 1960. – С. 237–249; Семенов А. А. Гератская художественная рукопись эпохи Навои и ее творцы. // Алишер Навои. — М. – Л., 1946. — С. 153-174.

⁹ Бертельс Е.Э. Навои: опыт творческой биографии. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1943. – 271 с.

tadqiqot ishlarini olib borgan va Navoiy asarlarini G'arbda nashr ettirgan, shuningdek, ularni fransuz tiliga tarjima qilib, Yevropaga tanitgan B.de Erbelo de Molenvil, S.de Sasi, A.Remyuzo, M.G.Belin, P.D.Kurtayl, E.Bloshe, L.Buva, E.Katremar, Sh.Sheffer, L.Aragon, P.Lugnet, A.Novaryan, A.Basani, E.Faze, N.Oran, V.Kviprine singari fransuz sharqshunos va adabiyotshunoslarining faoliyati ham alohida ahamiyatga ega¹⁰.

H.Vamberi o'zining "Chig'atoy tili darsligi" kitobida Navoiyning G'arbiy Yevropada o'rganilishi xususida to'xtalib, asosan M.Belen ishlarini tilga oladi¹¹ G'arbiy Yevropada Alisher Navoiy ijodi haqida xolis ilmiy tadqiqot yaratganlardan biri olmon akademigi A.Kurella bo'lib, u o'zining "Buyuk shoirning qayta kashf etilishi" nomli tadqiqotida shoir ijodini g'arb olimlari tomonidan o'rganilganligini keng yoritadi¹². Jahon navoiyshunosligining shakllanishida chex olim va ijodkorlari – B.Bečka, N.Zimova-Garchisova, E.Knoblox, P.Griječiček, Y.Ripka, H.Duda; venger tadqiqotchilari va tarjimonlari – H.Vamberi, E.Brodská, I.Nemet, V.Bexer; – bolgar, polyak, rumin mutarjimplari S.Stanchev, I.Mileyev, V.Slabodnik, K.Yavorskiy, Olteanu va V.Marian, shuningdek, shoirning italyan va ispan muxlislari – H.Armeno, R.Zippoli, A.Bombachi, R.Devereuxslarning ilmiy-adabiy faoliyatlari ham muhim bir bo'g'inni tashkil etadi¹³.

Alisher Navoiy ijodi ko'p yillar mobaynida o'zbek adabiyotshunos va tilshunoslari A.Fitrat, Oybek, M.Shayxzoda, I.Sulton, V.Abdullayev, S.G'aniyeva, A.Hayitmetov, V.Zoxidov, A.Qayumov, I.Haqqul, U.Sotimov, S.Erkinov, B.Valixojayev, S.Olimov, N.Mallayev, Y.Is'hoqov, Sh.Sirojiddinov va yana bir qancha olimlar tomonidan ham o'rganildi¹⁴. Urushdan keyingi davrda O'zbekistonda navoiyshunoslikka oid 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan, 200 dan ortiq katta-kichik ilmiy kitoblar nashr etilgan.

Mustaqillik yillarida ushbu sohada yanada jiddiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, Dilorom Salohiy 2001-yili "Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy

¹⁰ Холбеков М. Шоирнинг фарангистонлик мухлислари. – Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1991. № 39. – Б.31-43.; Бертельс Е.Э. Навои: опыт творческой биографии. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1943. – 272 с.;

¹¹ Vambery H. Caghataische Sprachstudien. – Leipzig: F.A.Brockhans, 1867. – 360 S.

¹² Alfred Kurella. *Buyuk shoirning qayta kashf etilishi*. "Sharq yulduzi", 2014. №5. – B. 162–170.

¹³ Сотимов У. Инкордан икромгача. Адабий-бадиий танқид. – Урганч, Урганч давлат университети, 1994. – 138 б.

¹⁴ Абдурауф Ф. Тилимиз. "Иштирокиюнъ" рўзномасининг 1919 йил 12 июндаги 32-сони; Ойбек. Навоий ғазалиёти. Мукаммал асарлар тўплами. 13-том. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Фан, 1979. – 512 б Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. – Тошкент: Фан, 1968. – 136 б.; Издат Султон. Алишер Навоий. – Тошкент, 1948.; Ганиева С. (тузувчи) Мажолисун-нафоис. Илмий-танқидий матн. – Тошкент, Фан, 1961 2648 б.; Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. –Т.: Фан, 1963. – 173 б.; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Тошкент, 1970. – 421 б; Қаюмов А. Нодир саҳифалар. Навоийнинг кам ўрганилган баъзи асарлари тўғрисида. – Т.: Фан, 1991. – 144 б.; Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Тошкент: Фан, 1981. — 100 б.; Сотимов У. Исследования жизни и творчества Алишера Навои в западноевропейском востоковедении. Дисс.... докт. филол. наук. - Москва, 1988. – 405 с.; Эркинов А.С. Алишер Навоийнинг пейзаж яратиш маҳорати ("Садди Искандарий" достони мисолида): Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 1990. – 121 б.; Эркинов А.С. Алишер Навоий "Хамса"си талқинининг XV-XX аср манбалари. Филол. фан. док. ...дисс. –Т, 1998. – 220 б. Валихўжаев Б. XV–XIX асрлар ўзбек адабий-танқидий қарашлари тарихидан. СамДУ асарлари, янги туркум. №138. Самарқанд, 1964. – 135 б.; Олимов С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1992. – 80 б.; Маллаев Н. Асрлар эътирофи ва таъзими. – Тошкент: Фан, 1978. – 64 б.; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – 168 б.; Сирождидинов Ш. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид XV-XIX асрларда асарларда яратилган форс-тожик манбалари (киёсийтипологик, текстологик таҳлил). Филол. фан. док. дисс.... автореф. – Тошкент, 1998. – 45 б.;

takomili (gʻazallar matnlarining qiyosiy tahlili asosida)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va shu asosda 2005-yilda “Navoiy sheʼriy uslubi masalalari” nomli monografiyasini nashr ettirdi¹⁵. Olimaning ushbu tadqiqoti birinchi marta Hamid Sulaymon jadvallariga tayangan holda A.Navoiy lirik ijodidagi davriy oʻzgarishlarni chuqur tahlil qilgani bilan navoiyshunoslikda yangi bosqichni boshlab bergan deb eʼtirof etiladi. Sh.Isaqovanning “Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi” (Oybekning “Navoiy” romanining fransuzcha tarjimasi misolida) mavzusidagi dissertatsiyasida oʻzbek adabiyotining fransuz tiliga tarjimalari asosida milliy xarakter va tarixiy davr ruhi ifodasining meʼyor va qoidalari tadqiq etilgan¹⁶. Y.A.Nasirdinovaning “Oʻzbek folklori va mumtoz adabiyoti fransuz tilida” (Remi Dor tarjimalari asosida) mavzusidagi dissertatsiyasida esa A.Navoiy ijodining fransuz tiliga tarjimasi boʻyicha qimmatli maʼlumotlar bayon etilgan¹⁷.

Soʻnggi yillarda mamlakatimiz tilshunoslari va adabiyotshunoslari tomonidan A.Navoiy ijodi yanada chuqurroq oʻrganilmoqda. Jumladan, M.Tadjixoʻjayev Gʻarb va Sharq adabiy aloqalari xususida 2016-yilda nodir bir qoʻllanma yaratgan¹⁸ boʻlsa, X.Raximov Navoiy gʻazallarini nemis tiliga tajima qilgan¹⁹. Oʻzbek-fransuz adabiy aloqalarini oʻrganishda esa eng salmoqli ishni Samarqand davlat chet tillari instituti professori M.Xolbekov amalga oshirgan²⁰. 2017-2022 yillar davomida birgina Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy kengashda bevosita Alisher Navoiyning maʼnaviy merosiga bagʻishlangan 13 ta dissertatsiya muvaffaqiyatli himoya qilingan²¹.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot Urganch davlat universitetining “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiy gʻazallarining fransuz tiliga tarjimalarida badiiy va uslubiy muqobillik darajasi hamda milliy kolorit ifodasining aks etishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fransuz navoiyshunosligining shakllanish bosqichlari va turkiy tilda yaratilgan asarlarning tarjima tadqiqi bilan shugʻullanuvchi Gʻarb tarjimashunoslik maktablari ilmiy anʼanalarini oʻrganish;

Sharq va Gʻarb adabiy aloqalarining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, fransuz navoiyshunosligining rivojlanish tamoyillarini belgilash hamda gʻazal

¹⁵ Салоҳий Д. Навоий шеърий услуби масалалари. – Тошкент, Фан. 2005. – 204 б.

¹⁶ Исакова Ш. Бадий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс этирилиши. (Ойбекнинг “Навоий” романининг французча таржималари мисолида): Филол. фан. номз.... дисс. – Т., 2004. – 202 б.

¹⁷ Nasriddinova Y.A. Oʻzbek folklori va mumtoz adabiyoti fransuz tilida (Remi Dor tarjimalari asosida). Filol. fan. boʻyicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 162 b.

¹⁸ Таджикўжаев М. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. Монография. – Наманган, Баёз, 2016. – 182 б.

¹⁹ Алишер Навоий. Қаро кўзум. Олмон тилидан Хуррам Раҳимов таржимаси. – Т.: Адабиёт, 2021. – 195 б.

²⁰ Холбеков М. Узбекско-французские литературные связи (в аспекте перевода, критики и восприятия): Дисс. ... канд. фил. наук. – Самарканд, 1991. – 424 с.

²¹ Муҳиддинов М. Самарқандда Навоийшunoslik. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2020 йил, 24 октябрь.

tarjimasidagi badiiy va leksik muqobillik, shakl va mazmun birligini saqlash masalalariga oydinlik kiritish;

“A.Navoiy g‘azallari”ning Hamid Ismoilov va Jan Pier Balp tomonidan fransuz tiliga qilingan tarjima variantining asliyat bilan janriy mutanosibligiga aniqlik kiritish;

Alisher Navoiy g‘azallaridagi milliy koloritni ifodalovchi diniy-falsafiy va madaniy-maishiy reliyalarning tarjimada qay darajada qayta yaratilganligini ilmiy dalillash;

tarjimaning yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda mavjud tajribalar asosida kelgusida mukammal g‘azal tarjimalarini amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Hamid Ismoilov va Jan Pier Balplar tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan va “Alisher Navoiy Gazels et autres poemes” (*Alisher Navoiy. G‘azal va boshqa poemalar*) nomi bilan nashr qilingan to‘plamdan olingan g‘azallar va ularning asliyati tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiy g‘azallarining fransuz tiliga tarjimalaridagi badiiy muqobillik, xususan, asliyatda qo‘llanilgan milliy koloritni ifodalovchi diniy-falsafiy, madaniy-maishiy realiyalar, vazn va badiiy tasvir vositalarining hozirgi fransuz tilida berish usullariga doir xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, ilmiy-kontekstologik va badiiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qadimgi turkiy asarlarning tarjima va tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi G‘arb tarjimashunoslik maktablari an‘analari tahlili asosida fransuz navoiyshunosligining tarixiy ildizlari hamda turkiy tildagi g‘azallarni fransuz tiliga tarjima qilishdagi muammolarni yuzaga keltiruvchi lisoniy, lingvomadaniy, diniy, tarixiy, etnopsixologik omillar aniqlab berildi;

g‘azal tarjimasida uslubiy muqobillik hamda shakl va mazmun birligini saqlash masalalari, tarjimonning asliyat yaratilgan davr va g‘azal muallifi ruhiyatini qay darajada anglashi bilan bevosita bog‘liqligi aniq misollar asosida dalillandi;

A.Navoiy g‘azallaridagi lirik qahramonning ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, ichki kechinmalari hamda milliy koloritni yuzaga keltiruvchi diniy-falsafiy va madaniy-maishiy reliyalarning tarjimada qayta yaratilishidagi tarjimonlarning yutuq hamda kamchiliklari ochib berildi, asliyatni fransuz tiliga tarjima qilishda mumtoz g‘azallarga xos janriy, aruz vazni va badiiy tasvir vositalari bilan bog‘liq murakkabliklar hamda ularni bartaraf qilishda qo‘llanilgan tarjima tamoyillari asosida mutarjimlarning so‘z tanlash mahorati ilmiy jihatdan asoslab berildi;

tarjimonlar asliyatdan, ya‘ni eski o‘zbek yozuvidagi Alisher Navoiy g‘azallarini fransuz tiliga erkin tarjima qilishgani va bu jarayonda tarjimaning analogiya, kalkalash, yarim kalkalash kabi deyarli barcha usullaridan foydalanishgani ilmiy jihatdan tavsiflandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon tarjimashunosligining eng yangi nazariy konsepsiyalari asosida tavsiflangan o‘zbek va fransuz tillaridagi g‘azal tarjimalari tahlili yuzasidan ishlab chiqilgan xulosa va natijalar, shuningdek, tadqiqotda qo‘llanilgan tarjimashunoslik

materiallari mazkur sohani yangi ilmiy-nazariy tushunchalar bilan boyitishi, mumtoz g'azallar tarjimasi va ularda qo'llangan mutarjim usullarini tahlil qilishdagi ilmiy-amaliy qarashlarni rivojlantirishi hamda shu yo'nalishda tadqiqotlar yaratishda amaliy manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan;

Fransiyada Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi, fransuz navoiyshunosligining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, shoir g'azallarida milliy koloritni yuzaga keltiruvchi turli xil diniy-falsafiy, madaniy-maishiy reliyalarning tarjimada qayta yaratilishi, g'azal vazni va badiiy tasvir vositalarining fransuz tiliga tarjima qilish tamoyillariga oid materiallar "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Chog'ishtirma tilshunoslik", "Tarjimashunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Tilshunoslik nazariyasi", "Lingvomadaniyatshunoslik" fanlari bo'yicha mavjud darslik, o'quv qo'llanmalarni boyitishi; tarixiy asarlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari, tarjima qonuniyatlari, tamoyillari va muammolarini o'rganuvchi magistrant, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun ushbu tadqiqot muhim ilmiy asos va amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tanlangan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan natija va xulosalarning ilmiy asoslanganligi va qat'iyiligi, qo'llanilgan yondashuv va tahlil usullarining ilmiy talablar va zamonaviy paradigmalarga mosligi, tadqiqot jarayonida tahlil qilingan materiallarning yetarli darajada asosli ekanligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotda sinovdan o'tkazilib, ilmiy va ta'limiy jarayonda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ushbu natijalar turkiy tilda yaratilgan mumtoz g'azallarni zamonaviy fransuz tiliga tarjimasida milliy koloritni ifodalovchi leksik birliklarning adekvat ifodalanishi, g'azallarda qo'llanilgan aruz vazni va she'riy san'at vositalarini tarjimada qayta yaratish tamoyillariga oid ilmiy qarashlarni yangi nazariy yondashuvlar bilan boyitish imkoniyati asoslab berilgan. Shuningdek, g'azal tarjimasida asliyatga muvofiqlikni ta'minlovchi asosiy omillar, asliyatda aks etgan realiyalar va tasviriy vositalarni tarjima qilish usullari hamda ushbu jarayonda mutarjim mahorati va tarjima adekvatligiga qo'yiladigan talablarini aniqlashda nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mumtoz g'azallar tarjimasida qo'llaniladigan faol va nafaol tarjima usullarini amaliy materiallar bilan boyitish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, mazkur ilmiy ish natijalari tarjima amaliyotida milliy realiyalarni eng muvofiq usullarda berish, oliy ta'lim muassasalarining filologiya ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv rejasidagi "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Chog'ishtirma tilshunoslik", "Tarjimashunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Tilshunoslik nazariyasi", "Lingvomadaniyatshunoslik" fanlari bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, maxsus kurslarni tashkil etish hamda shu fanlardan tayyorlanadigan o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishdagi samaradorligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy gʻazallarining fransuz tiliga tarjimasida badiiy va uslubiy muqobillik hamda janriy mutanosiblikni aniqlash yuzasidan olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriy qilingan:

mumtoz gʻazallar tarjimasida tarjimonning oʻrni va milliy koloritni aks ettiruvchi leksik birliklarni fransuz tilida toʻgʻri ifodalash tarjimaning asliyatga muqobilligini taʼminlovchi asosiy vositalardan biri ekanligini asoslovchi ilmiy natijalardan OʻzRFA Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-FI-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi FA Qoraqalpogʻiston boʻlimi qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 8-avgustdagi 329/1-son maʼlumotnomasi). Natijada tadqiqotning A.Navoiy gʻazallaridagi milliy-madaniy birliklarning tarjima tilida qayta yaratilishiga oid tavsiyalar loyiha doirasida amalga oshirilgan tarjimalarga nazariy asos boʻlib xizmat qilgan;

tarjimada shakl va mazmun birligi, janriy mutanosiblik masalasi va asliyatdagi milliy realiyalarni tarjimada qayta tiklash bilan bogʻliq ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy misollardan Yevropa ittifoqining Erasmus + dasturining 585845-ERR-1-2017-1-ES-ERRKA2-SBHT-JP: “Developpement of the interdisciplinary master program on Computatinal Linguistics at Central Asian Universities: CLASS” grant loyihasini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi Urganch davlat universitetining 2023-yil 13-sentyabrdagi 06-194-/7-son maʼlumotnomasi). Natijada mumtoz matnning fransuz tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik, madaniy va pragmatik tafovutlarni bartaraf etish hamda madaniy realiyalarni ifodalashda lingvomadaniy va lingvopragmatik meʼyorlarga rioya qilinishiga erishilgan;

Fransiyada Alisher Navoiy ijodining oʻrganilishi, tarjimada milliy koloritning ifodalanishi, milliy realiyalarning tarjima qilish usullari, gʻazal badiiyatini tarjimada saqlash masalalariga doir natija va xulosalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasiga qarashli Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-avgustda efirga uzatilgan “Najot – bilimda” radioeshittirishida foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 6-sentyabrdagi 564-son maʼlumotnomasi). Natijada telekoʻrsatuv va radioeshittirishlar yangi ilmiy asoslangan materiallar bilan boyitilgan hamda Alisher Navoiy gʻazallarining boshqa xalq vakillari tomonidan ham mutolaa qilinishi va keng ommaga yetkazilishi uchun imkoniyat yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan va maʼqullangan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini eʼlon qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobi **“Fransuz navoiyshunosligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari”** deb nomlangan va bob uch fasldan tuzilgan. Birinchi fasl **“G'arb va Sharq adabiy aloqalarining tarixiy bosqichlari”**ga bag'ishlangan bo'lib, bunda o'zbek-fransuz adabiy aloqalari shartli ravishda 4 davrga bo'lib o'rganilgan va har bir davrning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

1. Sharq va G'arb adabiy aloqalarining dastlabki bosqichi. Bu davrdagi mo'g'ullar bosqinidan foydalanib, Sharqda nasroniylar bemalol harakatlanib, nodir kitob va qo'lyozmalarni o'zlari bilan olib ketganlar. Missionerlar, jahongashta sayyoh va maxsus tadqiq uchun kelgan nasroniylar tomonidan olib ketilgan kitob va qo'lyozmalar ularning tiliga tarjima qilinishi saroy ahli va oddiy fuqarolar tomonidan o'qilishi va munosabat bildirishlari dastlabki sharq va g'arb adabiy aloqalarning debochasi edi. XIV asrning so'nggi choragida Jahon maydoniga chiqqan sohibqiron Amir Temurning muvaffaqiyatli yurishlari tufayli Sharq va G'arbda munosabatlar yaxshilandi. Bu davr g'arblik sharqshunoslar A.Navoiyga tarjimon yoxud taqlidchi nuqtayi nazaridan qaradilar²².

2. Sharq va G'arb adabiy aloqalarining ikkinchi bosqichi. Bu davr G'arbiy Yevropa va Sharq davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy, diplomatik aloqalarning rivojlanishi; ko'plab g'arblik sayyohlar, monaxlar, savdogarlar va diplomatlar tomonidan yozilgan ko'p sonli qo'lyozmalar hamda kitoblarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. XV-XVI asr qo'lyozmalari G'arbiy Yevropada Sharq adabiyotini o'rganish, Sharqni ilmiy tadqiq qilish g'oyasini shakllanishiga sababchi bo'ldi, G'arbiy Yevropa universitetlarida sharqshunoslikning paydo bo'lishi, asta-sekinlik bilan tilshunoslik va mamlakatshunoslik kabi fan yo'nalishlarining shakllana boshlanishiga asos bo'ldi. Fransiyada eng ko'p rivojlangan filoorientalizm (*Sharqni sevish*) XVIII asrdagi yevropalik ziyoli va zodagonlar orasida yangicha dunyoqarash kasb qilgan.

Bu davrda Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy, Abulqosim Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imomiddin Nasimiy, Fozil Burhoniddin Haqiniy, Hasan Chalabiy, Ahdi Bag'dodiy, Xatoiy, Jaloliddin Rumiy, Anvari, Mirzo

²² Сотимов У. Инкордан икоргача. Адабий-бадиий танкид. – Урганч, 1994. – Б.7.; Ёшлик журнали, 1988. – №2. – Б.64.

G'oliblarning asarlari alohida nashrlarda ingliz jamoatchiligi orasida keng tarqalib ketgan edi.

3. Sharq va G'arb adabiy aloqalarining uchinchi bosqichi Sho'rolar davri. A.Kurella A.Navoiy ijodi bilan tanisha boshlagan yillarda "Farhod va Shirin" dostoni jamoatchilik orasida muallifning eng zo'r dostoni sifatida mashhur bo'lgan edi²³. Bu davrda alloma ijodini tahlil qilish, ijodiy o'rganish ishlari, asosan, rus tilida olib borilgan va rus tiliga tarjima qilingan. Sho'rolar davridagi xalq ateistik ruhda tarbiyalangan, kommunistik qarash hamda ateistik ruh singdirilayotgan avlodga A.Navoiy asarlarini to'g'ridan to'g'ri taqdim qilish mumkin bo'lmagan, chunki alloma ijodidagi Allohni ulug'lash va munojotlar qismi tarjima qilinmagan yoki umuman olib tashlangan. Ko'pchilik rus tarjimonlar xolis yondashganlar, lekin ayrim tarjimonlar alloma ijodini tarjima qilishda juda qo'pol xatolikga yo'l qo'yg'nanlar. V.Derjavin tarjima qilgan "Hayrat ul-abror" dostoni bunga misol. A.Navoiy ijodi rus tiliga tarjimasi manzarasida "Farhod va Shirin"ning 54 bobidan 29 bob, "Layli va Majnun"ning 38 bobidan 25 bob, "Sab'ai sayyor"ning 38 bobidan 15 bob, "Saddi Iskandariy"ning 89 bobidan 10 bobgina berilgan, xolos. Dostonlar matnidagi tarjima qilinmay tushirib qoldirilgan boblarsiz rus o'quvchisi A.Navoiy dahosi to'g'risida hech qanday to'liq ma'lumotga ega bo'la olmaydi²⁴.

4. Sharq va G'arb adabiy aloqalarining to'rtinchi bosqichi. Mustaqillik davri. Bu bosqichda A.Navoiy ijodini o'rganilishining ham mustaqillik davri boshlandi. Mustaqillik yillarida bu sohada ko'zga ko'rinarli yangilik yuz berdi. Jumladan, D.Salohiy 2001-yili "Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy takomili" deb nomlangan doktorlik ishini himoya qildi va shu asosda 2005-yili "Navoiy she'riy uslubi masalalari" nomli monografik tadqiqotini nashr ettirdi²⁵; Sh.Isaqovanning "Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi" (Oybekning "Navoiy" romanining fransuzcha tarjimasi misolida) mavzusidagi dissertatsiyasida o'zbek adabiyotining fransuz tiliga tarjimalari asosida milliy xarakter va tarixiy davr ruhi tarjimasining me'yor va qoidalari tadqiq etildi²⁶; Y.A.Nasirdinova "O'zbek folklori va mumtoz adabiyoti fransuz tilida" (Remi Dor tarjimalari asosida) mavzusidagi dissertatsiyasida A.Navoiy ijodining fransuz tiliga tarjimasi to'g'risida juda muhim ma'lumotlar keltirildi.

Bobning ikkinchi fasli ***"Navoiy ijodini o'rganilishi va fransuz navoiyshunosligining rivojlanish tamoyillari"*** deb nomlangan.

Fransiyada Bartoleme d'Erbolesning "Sharq kutubxonasi" kitobida A.Navoiy shaxsi to'g'risida ma'lumot keltiriladi. Mazkur kitobning 99-sahifasida Alisher ismi, uning yasalishi, mutafakkirning nasabi hamda to'rtta devon yozganligi, she'r va dostonlari turkiyda va forsiyda yozilganligi to'g'risida so'z yuritiladi²⁷. Fransuz sharqshunosi Bartolemi d'Erbole musulmon allomalari tomonidan yaratilgan tarixiy

²³ Сотимов У. Навоий хусусида Алфред Курелла фикрлари. – "Гулистон" jurnali, 1990. – №7. – Б.8-9.

²⁴ Мухаммад АЛИ. Тарих сабоқларидан хулоса чиқариб яшайлик. – "Халқ сўзи" газетаси, 2014 йил 8 ноябрь.

²⁵ Солохий Д. Навоий шеърий услуби масалалари. Монография. – Самарқанд, 2005. – Б.14-15.

²⁶ Исакова Ш. Бадий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс этирилиши (Ойбекнинг "Навоий романининг французча таржимаси мисолида): Филол. фан. бўйича фал. докт. дисс. авторефер. – Тошкент, 2004. – Б.10-11.

²⁷ B.d'Erbelot de Molainville. Biblioteque orientale ou Dfctionnaire universel contenant...tout ce qui regarde la connaissance des peuples de l'Orient. – Paris, 1697. – P.1059.

asarlarni, qo'lyozmalarni tarixiylik kesimida yilma-yil tizimli taxlab, "Sharq kutubxonasi" nomli manba yaratdi²⁸. Bu kitobning nashr qilinishi G'arbiy Yevropa va Markaziy Osiyo xalqlari madaniy aloqalari rivojlanishining bosh bo'g'ini bo'ldi.²⁹

Herman Vamberining tadqiqotlarida A.Navoiy ijodiga bo'lgan qarash ijobiy ma'noni kasb etgan hamda bu ishlar allomaning g'arbiy mintaqalardagi shuhratini tiklashga baholi qudrat xizmat etdi³⁰.

XIX asrga kelib Parij Yevropa sharqshunosligining markaziga aylandi. Bu yerda "Sharq jonli tillari maktabi" tashkil etilib, unda faoliyat ko'rsatgan S.De Sasi, E.Katremer, F.Belen, P.De Kurteyl kabi sharqshunoslar Milliy kutubxona fondidagi arabcha, forsha, va turkiy tillardagi qo'lyozmalarni o'rganishga kirishadilar hamda ular qalamiga mansub qo'lyozmalar bir qancha tillarda, jumladan, fransuz tilida ham nashr etildi. Alisher Navoiy ijodini Fransiyada targ'ib qilish va o'rganishga 1841-yili nashr qilingan Eten Katremerning "Sharqiy turk adabiyoti xrestomatiyasi" nomli kitobi³¹ ham katta hissa qo'shgan.

XX asrga kelib esa Yevropa sharqshunosligida A.Navoiyni u yoki bu darajada inkor etishlar davom etdi. Bu hol Edgar Bloshening "Parij Milliy kutubxonasi Sharq qo'lyozmalari tasnifi"³² (Parij, 1926) asari; Y.I.Gibbning 1902-yil Londonda nashr ettirgan "Usmonli turk poeziyasi tarixi" asari, fransuz olimi E.Faze va turk yozuvchisi A.X.Mamduhlarning "Usmonli turk poeziyasi antologiyasi" (Parij, 1909), fransuz sharqshunosi L.Buvaning "Mo'g'ul amirlari" (Parij, 1927), A.Bombachining "Mo'g'ul dinastiyasi davrida turk adabiyoti tarixi" (Milano, 1956) asari, P.A.Bosanining ispan tilida nashr ettirgan "Fors adabiyoti tarixi" (Milano, 1960) kitobi, N.Arzikning 1968-yilda fransuz tilida nashr ettirilgan "Turk adabiyoti antologiyasi", N.Ulloxning 1963-yil Nyu-Yorkda nashr ettirgan "Islom adabiyoti" tadqiqoti va boshqa shu kabi asarlarda ham A.Navoiy ijodi xususida ayrim g'ayriilmiy qarashlar mavjud edi³³.

Mark Tutan 6 yil O'zbekistonda yashab, o'zbek tili hamda A.Navoiy qo'lyozmalarini asliyat tilida o'qish malakasini egallagan va 2013-yil Parijda – Ijtimoiy fanlar oliy maktabida, Natali Kleer rahbarligida "So'nggi Temuriylar madaniyati: Alisher Navoiy (1441-1501) "Xamsa"si misolida nazirago'ylik amaliyoti tadqiqi"³⁴ nomli doktorlik ishini yoqlaydi³⁵.

Bobning uchinchi fasli "*Navoiy asarlarining fransuz tiliga tarjima qilinishi tarixidan*" deb nomlangan.

²⁸ Холбеков М. Ko'rsatilgan manba. – Б.17.

²⁹ B.d'Erbelot de Molainville. Bibliothèque orientale ou Dictionnaire universel contenant...tout ce qui regarde la connaissance des peuples de l'Orient. – Paris, 1697. – P.1059.

³⁰ Vambéry H. Caghataische Sprachstudien. – Leipzig: F.A.Brockhaus, 1867. Grenaad F.D. de Rins. Mission scientifique dans la Haute Asie. – P.7.

³¹ Шарқ тиллари учун семинарларга оид ахборотлар. – Берлин, 1902. – Б.53.

³² Сотимов У. Ko'rsatilgan manba. – Б.7-8.

³³ Сотимов У. Исследования жизни и творчества Алишера Навои в западноевропейском востоковедении: Дисс. ...докт.филол.наук. – Москва, 1988.; Сотимов У. Навоий хусусида Алфред Курелла фикрлари. // Гулистон. – Тошкент, 1990. – №7. – Б.8-9.; Сотимов У. Инкордан иқроғача. Адабий-бадний танқид. – Ургенч, 1994. – Б.29.

³⁴ Toutan Marc. La cultures des dernier Timourides: études des pratique d'imotation à travers l'exemple de la Khamza de Mir Ali Shir Nawai 1441-1501. Soutenue en 2013 à Paris EHESS. Sous la direction Natalie Claire.

³⁵ Насридинова Ё.А. Ўзбек фольклори ва мумтоз адабиёти француз тилида: Филол.фан.бўйича фалс.докт. ...дисс. – Андижон, 2019. – Б.31.

XVII-XVIII asrlarga kelib, Sharqni ilmiy o'rganish va Sharq xalqlari adabiyoti namunalarini tarjima qilish borasida fransuz sharqshunoslari katta jonbozlik ko'rsatdilar. Fransuz sayyohlari J.Taverne (1605-1689) va J.Sharden (1643-1713)larning Sharqqa qilgan sayohatlari kitob holida bosilib chiqdi. 1634-yilda Dyu Reye Sa'diyning "Guliston" asarini, 1708-yilda A.Galen "Ming bir kecha"ni fransuz tiliga tarjima qildilar. Navoiy ijodini fransiyada tadqiq qilgan buyuk sharqshunoslar biri bu Fransuz kollejining professori Eten Katremerdir. A.Navoiy hayotiga doir maqola E.Katremer tomonidan yozilgan.

Fransuz turkologi Belen, keyinchalik E.Bloshe, L.Buva kabi turkologlar A.Navoiy asarlaridan parchalar tarjima qilganlar. 1900-yilda nashr etilgan Sh.Shofferning "Arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozmalar katologi"da A.Navoiy qalamiga mansub asarlarning 16 ta qo'lyozmasi keltirib o'tilgan bo'lsa, E.Bloshening "Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo'lyozmalar katologi"da adib asarlarining 35 ta qo'lyozmasi tasnif qilingan. Fransuz sharqshunosligida A.Navoiy hayoti va ijodi tadqiqi Lyusen Buva (1872-1942) ishlarida davom ettirildi³⁶.

A.Navoiy ijodiga haqiqiy realistik bahoni fransuz adabiyotining mashhur vakili Lui Aragon (1897-1982) berib o'tdi. U o'zining 1955-yilda Parijda "Denoyol" nashriyotida bosilib chiqqan monografiyasida A.Navoiyning haqiqiy insonparvar ekanligi, xalqparvar ekanligi, uning asarlari asrlar osha xalq qalbida saqlanib kelishi to'g'risida qaydlar bitgan³⁷.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Navoiy g'azallari fransuzcha tarjimalarining qiyosiy tadqiqi**" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli "***Alisher Navoiy g'azallarining fransuz tilidagi tarjimalari texnikasi va metodikasi***"ga bag'ishlangan.

Ma'lumki, Alisher Navoiy g'azallari va ayrim boshqa janrdagi asarlari Hamid Ismoilov va Jan Pier Balplar tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan bo'lib, bu tarjima Fransiyaning "Orphée, La Difference" nashriyotida "G'azal va boshqa poemalari"³⁸ nomi bilan bosmadan chiqqan. Mazkur kitobdan A.Navoiy ijodiga mansub 28 ta g'azal, 9 ta qit'a, 5 ta chiston, 9 ta ruboiy, 9 ta muxammas, 5 ta fard, 1 ta mustazodning fransuz tiliga tarjimasi o'rin olgan. Ushbu faslda oshiqona va orifona g'azallar, g'azal tarjimalari tahlili va ularning asliyatga muqobilligi borasida atroflicha fikr yuritilgan.

G'azalning tarjima qilish texnikasi va tahlil metodikasi bo'yicha tahlilda, asosan, quyidagilarga e'tibor qilinadi: a) mazmun va ma'noning berilishi; b) obrazli ifodalar, so'z o'yinlari, kinoya va majozlarning aks etishi; v) intonatsiya va pafosning ifodalanishi; g) vaznning saqlanishi; d) qofiyaning berilishi; y) radifning aks etishi. Bunday sxema asosida tahlil qilishni ko'pchilik olimlar tarjimani obyektiv tahlil qilish vositasi deb biladilar. Bu usulni L.Braginskaya taklif qilgan va o'z tahlillarida undan foydalangan³⁹.

A.Navoiyning "*Bizga ul mahvash tili-yu ko'ngli birla yor emas*" deb boshlanuvchi g'azalining matla'sidagi *mahvash* so'zi arxaizm bo'lib, u "oy yuzli,

³⁶ Холбеков М. Ўзбек адабиёти Францияда. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.12.

³⁷ Холбеков М. Ко'rsatilgan manba. – Б.41.

³⁸ Jann Piyer Balp. Alisher Navoiy Gazel et autres poemes. – Paris, 1991. E.L.A.Difference, pour la preface, la traduction et les notes.

³⁹ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.211.

chiroyli yuzli, go‘zal” degan ma’nolarni ifodalaydi. Tarjimon uni *visage de lune* deb so‘zma-so‘z fransuz tiliga o‘giran. Bu birikma tarkibidagi *visage* so‘zining lug‘atda “yuz, bet, chehra, chiroy, diydor, qiyofa, tus, ro‘y, bashara, kelbat, siymo” ma’nolari; *lune* so‘zi esa “oy” sifatida ko‘rsatilgan⁴⁰. Mutarjim *mahvash* so‘zi tarjimasida so‘zma-so‘z tarjima bermay, balki fransuz tilidagi go‘zallik semasining eng bo‘yoqdori bo‘lgan *belle* so‘zi bilan bersa, bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki yuqoridagi birikmada g‘azalning mazmuniga jiddiy ta’sir yetmagan bo‘lsa ham, ma’lum darajada badiiylik yo‘qotilganini ko‘ramiz. Ikkinchi baytdagi *bag‘ri tosh* frazemasini *coeur de pierre* shaklida tarjima qilingan. Holbuki, bu o‘rinda shoir metaforaga asoslangan ko‘chim orqali ma’shuqani nazarda tutgan. Tarjimadagi *coeur de pierre* birikmasi fransuz tilida o‘z ma’nosida “yurak-tosh” ma’nosini ifodalaydi⁴¹, lekin uning “sevimli yor” ma’nosi yo‘q.

Tarjimon g‘azaldagi *xonaqoh* so‘zini fransuz tilida *refuge* shaklida bergan bo‘lib, bu so‘z tarjimasida fransuz tilining 560 000 so‘zli “Le petit Robert” lug‘atida qayd qilingan besh ma’nosidan ikkinchi – “chekinadigan, ma’lum bir xavf-xatardan saqlanadigan joy” va uchinchi – “boshpana” ma’nosiga asoslangan. Tarjimonning *xonaqoh* so‘zining bunday o‘girishi uning islom dinining ayrim aqidalarini bilmasligi sababli sodir bo‘lgan, deb o‘ylaymiz.

Dissertatsiyamizda shu tarzda A.Navoiy g‘azallari va tarjimadagi *no‘shxand* *pour sourire*; *sipand* *feu* (olov, alanga); *tardoman* *tes yeux provoquent le péché* (*yeux* – “ko‘z, *provoquer* – 1) provakatsiya qilmoq, ig‘vo qilib yomon ishga undamoq; jig‘iga, achchig‘iga tegmoq; jig‘ini, achchig‘ini keltirmoq; 2) gijgijlamoq, fitna solmoq, g‘alamislik qilmoq; vasvasaga solmoq”, *péché* – “gunoh, ko‘pincha diniy yo‘nalishda qo‘llaniladi⁴²); *mahvash* *visage à beauté de lune*; *azalning qismati* *eternite* (mangulik, boqiylik⁴³); *qaro ko‘zum* *regard noir* (*regard* “qarash, boqish, nazar, nigoh, ko‘z”; *noir* esa “qora, qop-qora, tim qora, qoramtir”); *ravza* (1) *bog‘*; 2) *jannat*; 3) *mozor*, *ziyoratgoh*⁴⁴) *jardin fleuri* (gullagan bog‘) kabi bir qancha arxaizm va realiyalar tarjimasini hamda ma’nolari tahlil qilingan.

Bobning ikkinchi fasli “**G‘azal tarjimasida leksik muqobillik**” deb nomlangan. Tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy e’tiborni ikki til tizimining semantik tomoniga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki ma’lumotning aniqligi asosini turli tillar matnlarining semantik uyg‘unligi tashkil etadi. So‘zlar tarjimalarining muhim vazifalaridan biri “tarjimaviy muqobillikdir”⁴⁵. Asliyat bilan tarjimaning mazmunan bir-biriga to‘la-tekis mos kelishi birinchi darajali zarurat bo‘lganligi uchun ko‘pchilik tadqiqotchilar muqobillikni tarjimaning asosiy sharti, deb hisoblashadi. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, muqobillik tarjimaga berilgan “bir tildagi matnni o‘zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish” tarifiga mos keladi. Bunda “muqobillik tushunchasi” tarjimaning sifatli, yuqori bahoga loyqlik xususiyatini anglatadi. Shunday qilib, muqobil

⁴⁰ Ibragimov X. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Ofset Print, 2008. – B.580, 315.

⁴¹ Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – Paris, 2024. – Pp.460, 1900.

⁴² Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – Paris, 2024. – P.1838.

⁴³ Ibragimov X. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent, 2008. – B.212.

⁴⁴ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. II tom. – Toshkent: Fan, 1984. – B.591.

⁴⁵ Жуманиёзов З. Таржиманинг назарий ва амалий асослари. – Тошкент, 2018. – Б.38.

tarjima asliyat mazmunini o'zga tilda vazifaviy jihatdan to'la-to'kis talqin etishdan iborat jarayondir.

Asosan, asliyat bilan tarjima matnlarning muqobillik munosabatlari quyidagicha izohlanadi:

A.Navoiyning oshiqona yo'nalishdagi "Gar jafo qil, gar vafokim, dilistonim sen mening" matla'li g'azalini tarjima tahlilini ko'rib chiqamiz:

Gar jafo qil, gar vafokim, dilistonim sen mening,

Gar meni o'ltur vagar tirguzki, jonim sen mening.

Xohi ra'no qad bila borgil yonimdin jilvagar,

Xohi kel qoshimgakim, sarvi ravonim sen mening

Ko'nglum ichra sensen-u ishqing ne dey holim senga,

Chun bu yanglig' mahrami rozi nihonim sen mening.

Que tu me fasses souffrir ou me sois fidèle, tu es celle qui vole mon cœur.

Que tu me donnes la vie ou me tues, tu es ma vie.

Meni xafa qildingmi, sodiq qolasanmi, yuragimni o'g'irlagan sensan.

Menga jon berasizmi yoki o'ldirasizmi, siz mening hayotimsiz.

Birinchi misradagi "dilistonim sen mening" jumlasini fransuz tiliga "*qui vole mon cœur*", ya'ni "qalb o'g'risi" kabi tarjima qilingan bo'lib, bu asliyatdagi muqobil so'zning emotsionalligi yanada oshirgan. Lug'atda *vole* so'zi "o'g'ri"; *cœur* so'zi esa "XI asrning oxirida lotin tilidan kirib kelgan" izohi bilan "yurak, qalb" deb ko'rsatilgan⁴⁶. Ma'lumki, tarjimashunoslikda bunday muqobil tarjimaga yo'l qo'yiladi va hatto bu usul so'zma-so'z tarjimaga nisbatan ustunlikga ham ega: "Jonim sen mening" jumlasining originaldagi "jonim" o'rniga "*tu es ma vie*" – "hayotim" so'zining ishlatilishi, badiiy tasvirning oshirishi va emotsionallikning kuchayishiga olib kelgan.

Ikkinchi baytda qofiya bo'lib kelgan *sarvi ravonim* birikmasi tarjimon tomonidan *cyprès svelte* "nozik sarvimsan" tarzida tarjima qilingan. Bu birikma tarkibidagi *cyprès* so'zi lug'atda "sarvi daraxti, sarvi" deb, *svelte* so'zi esa "xushbichim, kelishgan" deb ko'rsatilgan⁴⁷.

Uchinchi baytdagi "Ko'nglum ichra sensen-u ishqing ne dey holim senga" misrasining fransuzcha ifodalanishini ko'rib chiqamiz:

Ko'nglum ichra sensen-u ishqing ne dey holim senga,

Chun bu yanglig' mahrami rozi nihonim sen mening.

Tu es mon amour en mon cœur, comment te dire mon état:

Tu es la gardienne de mon secret.

Sen mening qalbidagi sevgimsan, senga holimni qanday aytsam:

Sen mening sirimni saqlaysan.

"Mahrami rozi nihonim" so'z birikmasi "*la gardienne de mon secret*" (sirlarni asrovchi) tarzida tarjima qilingan va bu holat tarjimaning jozibadorligini oshishiga – o'quvchining qalbiga, ichki tuyg'usiga bevosita ta'sir qilishiga olib keladi. Lug'atda

⁴⁶ Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – Paris, 2024. – P.2738, 460.

⁴⁷ Aliqulov T. O'zbekcha-fransuzcha lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – B.67, 550.

gardienne soʻzi “saqlovchi, asrovchi, qoʻriqllovchi, soqchi”; *secret* soʻzi esa “sir, yashirin” maʼnosini ifodalashi koʻrsatilgan⁴⁸.

Bobning uchinchi faslida “**Tarjimada shakl va mazmun birligini saqlash masalalari**” tahlilga tortilgan. Maʼlumki, sheʼriy janrlar ichida gʻazalni ikkinchi bir tilga, ayniqsa, Gʻarb tillariga tarjima qilish bu juda murakkab ish sanaladi. Gʻazalni chet tillarga oʻgirishning mushkulligi toʻgʻrisida koʻpgina tarjimon olimlar gʻazallarni oʻz shaklini saqlab qayta yaratishning iloji yoʻq, deb hisoblaganlar. Odatdagi yevropacha sheʼriy tuzilish bilan tarjima qilish, garchi til imkoniyatlaridan erkinroq foydalanishga yoʻl ochsa ham, asl nusxaning tashqi koʻrinishini butunlay oʻzgarib ketishi toʻgʻrisida maʼlumotlar berganlar⁴⁹. Sharq lirikasining janr xususiyatlari ularning shakliy tuzilishi bilan chambarchas bogʻliq. Shaklning buzilishi bilan gʻazalning janr sifatidagi mavjudligi yoʻqoladi. Gʻazalning qofiyalanish sistemasi, radifi, baytlarining joylashuvi, matlaʼ va maqtaʼsi orasidagi yaxlitlik, asrlar davomida qaror topgan anʼanaviy sheʼriy til, har bir gʻazal uchun olingan aruz vazni, shoir kayfiyatini ifodalaydigan intonatsiya, pafos – bularning barchasi tarjimada ham boʻlishi lozim. Bundan tashqari, har bir gʻazalnavisning “tarzi bayoni”, sevgan majoziy maʼnolari, soʻz oʻyinlari, yoppasiga ohangdosh misralar koloritini his qila olsagina tarjimon muvaffaqiyat qozonishi mumkin⁵⁰.

Fransuz sheʼriyatining asosiy elementlari ham qofiya, oʻlchov va ritmlardan iborat (*Les rimes embrassées*) qoʻshilgan qofiya turi a-b, b-a shaklida yoki a-b, a-b shakllari ham mavjud. Sharq adabiyotidan nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qiluvchilar bu borada koʻp yillar davomida tajriba olib bordilar, bir necha namunalar yaratdilar, har xil usullarni sinab koʻrdilar. Masalan, Fridrix Ryukkerd Saʼdiyning “Boʻston” asarini mutaqorib (*faulun, faulun, faulun, faul*) bahrini va masnaviy shaklini (*aa, bb..* tarzida qofiyalash sistemasi) saqlashga harakat qilgan boʻlsa⁵¹, Nesselman Hofiz gʻazallarining shaklini berishga bir muncha erishgan. Bu mashqlar Yevropada umumiy muvaffaqiyat qozonmadi. Nemis, fransuz, ingliz tillariga qilingan aksariyat tarjimalar oʻsha xalqlarning sheʼriy sistemalari asosida bajarilgan.

Alisher Navoiyning “Navodir ul-nihoya” devonidagi 1-gʻazali⁵², yaʼni “Zihe zuhuri jamoling quyosh kabi paydo, Yuzing quyoshiga zarroti kabi oʻlub shaydo. \\
Ta beauté paraît comme le soleil, évidente et splendide: tous les atoms du monde sont amoureux du feu de ton visage” matlaʼsi bilan boshlanuvchi gʻazalida va uning fransuzchaga tarjimasida shakl va mazmunning qanchalik oʻzgargani tahlilga tortildi. Bunda tarjimadan koʻrinadiki, gʻazalning fransuz tiliga tarjimasida asliyatdagi sheʼriy uslub saqlanib qolmagan, faqat mazmun saqlangan boʻlib, fransuz oʻquvchisi shoir aytayotgan fikrni tushinadi xolos, ichki kechinma – badiiylik yoʻqotilgan. Tarjimon asliyatni fransuz tiliga tarjima qilish jarayonida *zihe* \\
belle – goʻzal, yoqimli, koʻngilga matlub; *zuxuri* \\
paretre, kavn \\
etre; subh, bayoz, amdo, shom, mazohir, saloyi, tigʻ, gʻayrudo, tavhid, guftugo kabi arxaizm va

⁴⁸ Ibragimov X. Fransuzcha-oʻzbekcha lugʻat. – Toshkent: Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti, 2008. – B.243-244.

⁴⁹ Дунаевский Е. О переводе газели “Хофиз. Лирика”. – М., 1955. – С.39.

⁵⁰ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.207.

⁵¹ Иржи Левий. Искусство перевода. – М.: Изд-во “Прогресс”, 1974. – С.255.

⁵² Алишер Навоий. Танланган асарлар. “Наводир ул-нихоя”нинг 1-ғазалидир.

realiyalarning tarjimalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, tarjimon *naqshi g'ayrudo* birligini tarjimada *l'ornement de leur différence* "turli xil naqshda" tarzida tarjima qilgan. 560 000 so'zli lug'atda esa bu birlik tarkibidagi *ornement* "naqsh, bezak"; *différence* "farq, ikki narsa ortasidagi tafovut" ma'nosini bildirishi qayd qilingan⁵³. Maqta'dagi *tavhid* realiyasi esa alohida tarjima qilinmagan, balki baytning umumiy tarjimasiga singdirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Tarjimada mahalliy koloritning aks ettirilishi**" deb nomlangan va uning birinchi fasli "**Tarjimada janrlar mutanosibligi masalasi**"ga bag'ishlangan.

Ma'lumki, har bir xalq she'riyatida, jumladan, o'zbek va fransuz she'riyatida ham she'r ritmining eng kichik elementi bo'g'in hisoblanadi. Shu jihatdan jahon xalqlari adabiyotida uch xil she'riy tizimlar farqlanadi: *sillabik*, *tonik* va *sillabo-tonik*. Sillabik sistemalar faqatgina bo'g'inlar soniga asoslanadi. Tonik vaznlarda bo'g'inning sifatiiy ko'rinishi muhim rol o'ynaydi. Uchinchi, she'rning sillabo-tonik tartibli jaranglashida bo'g'inlarning har ikki jihati – sifatiiy va miqdoriy o'zgarishi muhimdir. Fransuz she'riyati sillabik she'r tizimiga tegishli bo'lib, bo'g'inlar soniga asoslanadi. Turkiy barmoq tizimi ham sillabik vazn hisoblansa ham, tillar o'rtasidagi fonetik va grammatik farqlar tufayli tarjimada biroz nomuqobillik paydo bo'ladi.

Fransuz sillabikasi bilan o'zbek g'azal vazni o'rtasida bir necha farqlar mavjud. Birinchidan, fransuz sillabikasida faqat talaffuz etilgan unli tovushlarga bo'g'in tashkil qiladi. Ikkinchidan, fransuz she'riyatida sakkiz bo'g'indan qisqa vaznli she'rlar qisqa she'r hisoblansa, eng ko'p va mashhur qo'llanilgan vaznlar juft vaznlar: *oktosillab*, *dekasillab*, *dodekasillab* yoki *aleksandriya* vaznlaridir. Biroq nomuqobillik qoidalariga ko'ra, hozirgi zamon fransuz she'riyatida she'r ichki, kichik va bosh turoqlarga bo'linishi mumkin. She'riy ijoddagi bo'g'inlar soni o'n bir bo'lsa *dodekasillab*, to'qqiz bo'g'inli *dekasillab*, sakkiz bo'g'inli *enneasillab*, yettilik bo'g'inli vazn esa *oktosillab* orqali beriladi⁵⁴. O'zbek she'riyatidagi g'azal janri esa 11, 14, 15, 16 bo'g'in (hijo)dan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Ce toit tranquille, où marchent des colombes,

Entre les pins palpite, entre les tombes. \\\

Kabutarlar uchadigan bu sokin tom,

Qarag'aylar va qabrlar orasida kezar.

Bu – ikki qator *dekasillab* ritmga ega she'riy ijod. Birinchi qator vergulgacha 4 bo'g'in va satrning keyingi sintagmasi 6 bo'g'inli; ikkinchi qator esa aksincha, vergulgacha 6 va verguldan keyin 4 bo'g'inli. Umumiy o'n bo'g'inli: 4 + 6 va 6 + 4.

Fransuz she'riyatida g'azaldan farqli ravishda *la poésie* deb ataladigan she'riy shakl bo'lib, uning ham yillar mobaynida shakllangan qonun-qoidalar mavjud. Bular frazadagi bo'g'inlar soni, qofiya va ritmdir. Fransuzcha she'riyatning 12 xil (turlik) o'lchami bo'ladi. Bular o'n ikki bo'g'inli dodekasillab yoki aleksandriya uslubi deyiladi va u eng ko'p o'lchamli hisoblanadi. U o'z nomini qadimgi rimdan olgan va XII asrda juda urf sanalgan. Hozirda uning ikki turi bo'lib, birinchisi *Aleksandrin*

⁵³ Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – Paris, 2024. – P.1761, 735.

⁵⁴ Насириддинова Ё.А. Ўзбек фольклори ва мумтоз адабиёти француз тилида: Филол.фан.бўйича фалс.докт. ...дисс. – Андижон, 2019. – Б.121-122.

biner, ikkinchisi *Aleksandrin ternier* deb ataladi: (l'alexandrin binaire (tétramètre) et l'alexandrin ternaire (trimètre).

La/ sot/ti/se, //l'er/reur // le/ pé/ché, // la /lé//sin/(e)

{=3+3\\3+3}

Occu\pent nos esprits \\ et travail \ lent nos corps

{2+4\\3+3} har bir misra 12 bo'g'indan iborat.

Yuqoridagi ikki qator frazalar ritmik guruhlariga bo'lingan bo'lib, har bir guruh 3 bo'g'indan tashkil topgan. Ikkinchi frazadagi birinchi va ikkinchi ritmik guruhlarini birinchisi 2, ikkinchisi 4 bo'g'inli bo'lib, umumiy natija 12ga teng.

Bobning ikkinch fasli “*Tarjimada realiyalar tarjimasi masalasi*” deb nomlangan. Ma'lumki, tarjimashunoslikda realiyalar va ularni bir tildan boshqasiga tarjima qilish imkoniyatlari borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar qilingan. O'zbek tarjimashunoslaridan G'.Salomov, N.Komilov, R.Fayzullayevlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan⁵⁵. Ularda realiyalarning boshqa terminlardan farqi, tillardagi realiyalarning tematik xususiyatlari hamda o'zga tillarga tarjima qilish muammolari o'rganilgan. *Realiya* so'zi lotincha bo'lib, “ashyoviy, haqiqiy” degan ma'nolarni anglatadi. Ekzotizmlar ta'rifi V.P.Berkovning tadqiqotida ham o'z ifodasini topgan. U bir millatga mansub bo'lgan, turmush sharoitini, ijtimoiy munosabatlarni, tabiat hodisalarini ifodalaydigan, biroq boshqa xalqlar uchun begona so'zlarni ekzotizmlar deb hisoblaydi⁵⁶.

Quyida A.Navoiyning “Tun oqshom keldi kulbam sari ul gulruh shitob aylab” matla'li g'azalining fransuzcha tarjimasini ko'rib chiqamiz:

Tun oqshom keldi kulbam sari ul gulruh shitob aylab,

Xiromi sur'atidin gul uza xo'ydin gulob aylab. \\

Cette nuit son visage fleuri pénètre de force mon taudis,

La violence de ses pas piétine les fleurs, fait, de leur rosée, une essence.

Bugun tunda uning gulli chehrasi mening saroyimg a kiradi,

Uning qadamlarining zo'ravonligi gullarni oyoq osti qiladi, shabnamlarini mohiyatga aylantiradi.

“*Kulba*” leksemasi – arxaizm bo'lishi bilan birga, bu realiya hamdir. Ma'lumki, *kulba* leksemasi qadimda yaxshi jihozlanmagan, kambag'al odamlar yashaydigan uy-joyni ifodalagan. Mutarjim realiya yoki milliy xos so'zlarning tarjimasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mentalitet jihatdan keskin farq qiluvchi uzoq G'arb davlatlari o'quvchisi uchun Sharq adabiyotining durdonasi bo'lgan g'azal janri tushinarli bo'lishi uchun tarjimon tarjimaning mazmuniga katta ahamiyat qaratib *kulba* so'zini *taudis* tarjimasi bilan bergan. Va bu fransuzcha realiya – *taudis* 51 000 so'zlik lug'atda “kulba, yashash joyi, xaroba”⁵⁷ ma'nosini ifodalashi qayd qilingan. Tarjimada asliyadagi *kulba* realiyasining bu so'z bilan berilishi natijasida fransuz o'quvchisi oddiy bir inson yoki oddiy bir oshiq haqida gap borayotganini darrov anglab oladi. *Hijob* realiyasi tarjimada *rideau* so'zi bilan berilgan bo'lib, bu so'z lug'atda “parda ma'nosida keladi.

⁵⁵ Саломов Ф. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.44.

⁵⁶ Берков В.П. Вопросы двуязычной лексикографии. – Ленинград, 1973.

⁵⁷ Ганшина К.А. Французско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1987. – С.878.

Qaysi til birla deyin ko'nglim tilaydur xonaqoh,
 Kim til-u ko'nglim aro juz kulbayi xammor emas. \\
 De quelle langue dire que mon coeur cherche un refuge
 L'abri du vin ne regle pas le différend entre coeur et langue! \\
Qaysi tilda ayta olaman yuragim panoh istaydi,
Sharob til va qalb o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilmaydi.
(tarjima muallifniki : M.S.)

Misol tariqasida *afgor* – *yaralangan, majruh; bexud* – *o'zidan ketgan, behush; xonaqoh* – *so'fi va darveshlarning zikr o'tkazadigan joyi, maishatgoh; xammor* – *mayfurush; juz* – *bo'lak, qism; nuqta* – *teran ma'noli; guftor* – *so'z, nutq* leksemalarini keltirishimiz mumkin.

Tarjimon *xonaqoh* so'zini fransuz tilida *refuge* shaklida bergan bo'lib, bu so'zning fransuz tilining 560 000 so'zli “Le petit Robert” lug'atida besh ma'nosi ko'rsatilgan: 1) qo'llab-quvvatlovchi, qutqaruvchi, Xudo; 2) xavf-xatardan chekinadigan joy; 3) boshpana; 4) harakat yo'nalishida kutib turadigan joy; 5) alpinistlarni tog'da yomon ob-havoda kechani o'tkazish uchun tayyorlagan chodiri. Tarjimon yuqoridagi bayt tarjimasida ikkinchi – “chekinadigan, ma'lum bir xavf-xatardan saqlanadigan joy” va uchinchi – “boshpana” ma'nosiga asoslangan⁵⁸. “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at”da bu so'zning ma'nosi “insonlarning Allohni eslab zikr qiladigan joyi”, ya'ni “masjit, madrasa, qadamjo”⁵⁹ kabi ma'nolarni anglatishi qayd qilingan. Tarjimonning *xonaqoh* so'zining bunday o'girishi uning islom dinining ayrim aqidalarini bilmasligi sababli sodir bo'lgan, deb o'ylaymiz. Agar uning islom dini qonun-qoidalaridan xabari bo'lganida, bu kabi so'zlarni ko'proq izohlash yo'li bilan bergan bo'lar edi. Tarjimadagi bunday o'girishlar, asosan, boshqa dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar ijodi namunasi tarjimasida ro'y beradi.

Realiyalar va arxaik so'zlarning tarjimadagi asosiy vazifa: tarixiy davr ruhini berish; sharq xalqlari tarixiga xos tushunchalarni aks ettirish; sharq tarixiga qiziqish uyg'otish; xalqning tarixiy-milliy, ma'naviy madaniyati darajasini aks ettirish; yozma ijod tarjimasida ma'no nozikliklarini paydo qilib, uning til va uslubiga ta'sir qilish kabilar sanaladi⁶⁰.

A.Navoiyning orifona g'azallaridan yana biri

“Agar ishqing havosida yog'ar har jola tosh o'lsun” matla'li g'azalda *filuriy, suhon, xarosh, gardun, tashbih, paykon, sipoh, mahcha, raxshon, sutuni, soqiy, xarobot, dog', diram, mafrash, sohibfirosh, ashk* arxaizm va realiyalari bilan bog'liq bir qancha uslubiy figura va troplar yaratilgan, ammo, afsuski, tarjimada bular saqlanmagan. Masalan,

Yuzungnung mehridin bir zarra sotmon, gar falak javfi,
 To'la bo'lsun filuriy, har filuriy bir quyosh o'lsun⁶¹... \\
Si dans son vide le ciel perd quantité d'ambre,

⁵⁸ Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – Paris, 2024. – P.2162.

⁵⁹ Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.307.

⁶⁰ Ўрмонова Н.М. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги (Ўзбек классик адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида): Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – Б.19-21.

⁶¹ Алишер Навоий. Танланган асарлар. 4-жилд, 504-ғазал. – Б.72.

je ne perds pas une parcelle de son visage solaire,

chaque miette jaune devient soleil - baytida *filuriy* realiyasi bilan ishlatilgan: *filuriy* – oltin, oltin tanga⁶² (bu realiya fransuz tiliga tarjimada “mayda sariq” jismoniy ko‘rinishiga qarab tarjima qilgan, lekin uni tanga yoki pul deb tarjima qilinsa, to‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki bu so‘z realiyaga oid bo‘lib, o‘sha davrda mahalliy xalq oltin tangani *filuriy* deb ataganlar). Tarjima matnida “har mayda sariq” – *filuriy* *chaque miette jaune* (oltin tanga) tarzida ifodalangan. Bu birikmadagi so‘zlarning izohi lug‘atlarda quyidagicha berilgan: *vide* – bo‘sh, bo‘shliq⁶³; *chaque* – har, har bir⁶⁴; *miette* – mayda bo‘lak, nonning ushog‘i⁶⁵; *jaune* – sariq⁶⁶.

To‘rtinchi bayt – “Furqatingdin yig‘labon haqdin visoling istaram, Gah socharmen boshqa tufrog‘, gah qo‘yarmen yerga bosh”da shoir juda kuchli badiiy qochirim ishlatilganki, bundan faqat Alisher Navoiy dahosi bu ijodning muallifi ekanligi darrov tushuniladi. Birinchi misrada Allohdan yorning visoliga yetishishni yig‘lab so‘rashi va ikkinchi misrada bu so‘rashning holati juda kuchli badiiy tasvir vositasida ifoda etilgan. Buning fransuz tiliga tarjimasi ham juda ta‘sirli va to‘g‘ri berilgan.

Pleurant ton absence je demande à Dieu notre rencontre,

parfois je mets de la poussière sur ma tête, parfois je mets ma tête dans la poussière.

To‘rtinchi baytning ikkinchi qismidagi “haqdin visoling istaram” degan joyida tarjimon “Haq” so‘zini Xudo (Dieu) deb to‘g‘ri o‘g‘irgan. *Dieu* – IX asr o‘talarida lotin tidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, lug‘atda “Xudo, hamisha mavjud yagona, barcha narsalarni yer va osmonni yaratgan, uning so‘zlari Qur‘on va Bibliyada keltirilgan” tarzida ko‘rsatilgan⁶⁷.

Bundan kelib chiqadiki, tarjimon islom olamidagi “asmou xusna”dan xabardor bo‘lgan.

Bobning uchinchi fasli “***Badiiy tasvir va ifoda vositalarining tarjima talqini***” deb nomlangan. Narsa va hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalari manbalarda turlicha nomlanadi: *stilistik vositalar*, *figuralar*, *tilning poetik vositalari*, *tilning badiiy tasvir vositalari*, *tasviriy vositalar*, *ifodaviy tasviriy vositalar* kabi. “Badiiy tasvir va ifoda vositalari tildan foydalanishda muayyan badiiy estetik maqsadni ko‘zlab umumodatiy me‘yordan og‘ish (ya‘ni til unsurlarini odatdagidan o‘zga shakl, ma‘no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo‘llash) natijasida yuzaga keladi va tasvirning jonli, ifodaning ta‘sirli bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu xil og‘ishlar tilning turli sathlarida fonetik (alliteratsiya, assonans), morfologik (asindeton, polisindeton), leksik (arxaizm, dialektizm, jargon), semantik (troplar), sintaktik (inversiya, so‘z takrori, sintaktik parallellizm, ellipsis) sathlarida kuzatilishi mumkin⁶⁸”.

⁶² Алишер Навоий асарлари изоҳли луғати. 4 томлик. III. – Тошкент: Фан, 1984. – Б.345.

⁶³ Ганшина К.А. Французско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1987. – С.935.

⁶⁴ Ibragimov X. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti, 2008. – B.88.

⁶⁵ Ганшина К.А. Французско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1987. – С.578.

⁶⁶ Аликулов Т. Французча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – Б.142.

⁶⁷ Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – Paris, 2024. – Pp.734.

⁶⁸ Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Ко‘rsatilgan manba. – Б.267.

Ellipsis (yunoncha *elleipsis* – tushirish, tushib qolish) – stilistik figuralardan biri, nutqda jumla tarkibida soʻz boʻlakini atayin tushirib qoldirish. Ellipsis muayyan badiiy estetik maqsadni koʻzlagan holda amalga oshadi, ikkinchidan, soʻz (boʻlak) tushirib qoldirilsa-da, uning borligi nazarda tutiladi va anglashilib turiladi. Oʻzbek sheʼriyatida koʻproq bosh boʻlaklardan birining tushirilib qoldirilish hisobiga ellipsislar kuzatiladi⁶⁹. Masalan:

Oʻyla yuz ming pora koʻnglumni parishon etdi hujr,
Kim, topa olmon tilab men notavon mingdan birin.

Yuqoridagi baytda ellipsis holati qoʻllanilgan boʻlib, matlaʼdagi *oʻtum* leksemasi tushirib qoldirilgan va fransuz tiliga tarjimasida ham tushirib qoldirilgan, lekin borligi nazarda tutiladi va anglashilib turiladi:

*Dis-toi que notre séparation brise mon coeur en cent mille fragments
Mais, le ne peux consacrer l'un d'eux à la milliers.*

Apokopa (yunoncha – kesib tashlangan) – “soʻz oxirida bir yoki bir nechta tovushlarning yoʻqolishi, uning maʼnosiga ziyon yetkazmasdan soʻzni qisqartirish⁷⁰” degan maʼnoda keladi.

A.Navoiyning orifona gʻazallar turkumiga kiruvchi

“Yuz sihr qilsa kimgaki ellikdin oʻtti yosh” matlaʼli gʻazalini tarjima tahlilini koʻrib chiqamiz. Gaʻazalning 8-,9-baytlarining tuzilishida *apakopa* usuli qoʻllanganini koʻramiz. Yaʼni bunda 9-baytdagi “kosh” soʻzi 8-baytdagi “qayosh” soʻzi bilan qofiyalashgan. *Kosh* soʻzining asli toʻliq shakli *koshki* boʻlib, “shoyad, zora” kabi soʻzlar bilan maʼnodoshdir. Tarjimada apakopa saqlanmagan:

Yuz biymu oqibat ishi maʼlum emas kishi,
Tugʻmasa erdi yo tugʻubon oʻlsa erdi kosh⁷¹.

*Même si, à cinquante ans passés, tu sais mille tours,
les moqueries des enfants t'imposent une vie d'enfant.*

Sinkopa (yunoncha – qisqarish) – lingvistik atama sifatida soʻzning oʻrtasida tovushning yoʻqolishi⁷² ni anglatadi. Elliptik hodisalarning epik asarlarda uchrab turishi ijodkorning shunchaki oʻtkazgan eksperimentlari emas, balki aruz qoidalari bilan bogʻliq jihatlar, yanayam aniqrogʻi takrorlarga yoʻl qoʻymaslik oqibatida ham shunday stilistik figuralarga vaqti-vaqti bilan oʻrin berilishi juda oʻrinlidir.

⁶⁹ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Koʻrsatilgan manba. – Б.365.

⁷⁰ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Б.16.

⁷¹ Алишер Навоий. Танланган асарлар. 4-жилд, 250-ғазал.

⁷² Ҳожиёв А. Koʻrsatilgan manba. – Б.88.

XULOSA

1. Alisher Navoiy asarlarining Yevropa tillariga, xususan fransuz tiliga tarjima qilinishi Sharq va G'arb adabiy aloqalari tarixiy bosqichlarining paydo bo'lishiga hamda jahon navoiyshunosligining shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy topishiga turtki bo'ldi.

2. Navoiy g'azallari fransuzcha tarjimalarining asliyat bilan qiyosiy tadqiqi, nafaqat asliyatning janriy strukturasi, Sharq va G'arb nazmining metrik tavovutlari, balki tarjimonlarning tarjima texnikasi va metodikasini aniqlashga zamin hozirladi.

3. Ta'kidlash joizki, tarjimada shakl o'zgarishi, bu g'azal janrining fransuz adabiyotida yo'qligi bilan izohlanadi. Tarjimonlar tomonidan g'azal shaklini tarjimada tiklashga harakatlar bo'lgani holda, ko'proq Yevropa she'riy uslubiga moslashtirish yoki erkin tarjima, nasriy bayon qilganliklari aniqlandi.

4. Har qanday tarjima shaklan va mazmunan asliyatning o'rnini qisman bosadi. Ana shu nuqtai nazardan H. Ismoilov va Jan Pier Balp tarjimalari ham muayyan muqobilliklarga ega bo'lgani holda nuqson va g'alizliklardan holi emas.

5. Sharq bilan G'arb, O'zbekiston bilan Fransiya, islom va xristian dinlaridagi ko'plab farqlar tarjimada o'z izini qoldirgan va tarjima jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlarining ayrimlarini to'liq anglamaslik natijasida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi dalillandi. Jumladan, a) milliylikka daxldor bo'lgan qadriyatlar, urf-odat va udumlarni bilmaslik oqibatida yuz bergan kamchiliklar; b) mutarjimning asliyat matniga o'ta erkin yondashganligi sababli yo'l qo'yilgan kamchiliklar; c) ga'azallardagi ko'plab milliy va islomiy xosliklar, geografik manzillar, mansab va lavozimlari nomining fransuz tilida ekvivalenti topilmasligi bilan bog'liq kamchiliklar; d) sharq she'riyatidagi ga'azal janrini fransuz tiliga o'girish bilan bog'liq kamchiliklar.

6. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'zaro noqardosh bo'lgan fransuz tiliga tarjima qilishda tarjimaning umumiy qonuniyatlariga rioya qilinishi kerakligi hamda asliyat va tarjima tillari imkoniyatlarining inobatga olinishi, muayyan bir asar tarjimasida o'ziga xos yo'llar asosida alohida yondashish talab etishi zohir bo'ldi. lozimligi ni ta'kidlandi.

7. Tarjimada janrlar nomutanosibliigi, ya'ni vazn, qofiya va radif saqlanmagan bo'lsa ham, g'azallarning asliyatdagi mazmun-mohiyati yorqin ifodalangan. Shuningdek, tarjimada badiiy asar, xususan, g'azalga xos bo'lgan badiiy-tasviriyy vositalar qayta yaratilganligi kuzatildi.

8. Sharq tillari, shu jumladan, turkiy tillarda ma'noning serqatlamligi bilan bir qatorda, asarda ko'plab yangi so'zlarning qo'llanishi tarjimada muayyan darajada qiyinchilik keltirib chiqargan. Tarjimon ana shunday so'z va iboralarning asliyatga mos ma'nosini keltira olgan. Bu esa tarjima tilini sharqona tasavvurlar bilan boyishiga olib kelishi barobarida, kelgusida shu kabi asarlar tarjimalari uchun muayyan ma'noda dasturilamal bo'la oladi.

9. Ma'lumki, har qanday tarjima haqida gap ketganda aksariyat hollarda axborot tarzidagina gapirishga o'rganib qolganmiz, kim nimalarnidir tarjima qilganligini ta'kidlaymiz, qolaversa, matnni qiyoslab, ularning muqobillik darajasini belgilaymiz.

Endilikda badiiy asar tarjimasi xoh u nasr bo'lsin xoh nazm u alohida ijod turi sifatida baholanadi va uning asliyatga qay darajada muvofiq kelishi izohlanadi.

10. Eng yaxshi tarjimonlar uzoq vaqtgacha asliyatdan ta'sirlanib, ilhomlanib asliyat muallifi yaratgan obrazlar, g'oyalarining jonli hayoti, uning ruhi bilan yashaydi va natijada u asliyatni tarjima tilida qayta yaratishga jazm qiladi. Shu bois tarjima tarjimon uchun shunchaki jarayon emas, balki katta mas'uliyat, tajriba, mahorat va ijod maktabi vazifasini o'taydi.

11. Alisher Navoiy g'azallarining fransuzcha tarjimasida milliy xos so'zlar tarjimasiga alohida e'tibor qaratilganligi seziladi. Ular fransuz tiliga juda sodda va tushunarli tarzda tarjima qilingan bo'lib, uni fransuz o'quvchilari hech qiynalmasdan mutaola qilishlari tabiiy holdir.

12. Sharq she'riyatidagi badiiy san'atlarning ayrimlarini xorijiy tillarga, ayniqsa, genetik jihatdan uzoq, qardosh bo'lmagan tillarga o'girishda muvaffaqiyatga erishish qiyinligi ta'kidlandi.

13. Biz Alisher Navoiy ijodiy qirralari aks etgan manbalarni qanchalik yaxshi bilsak, ularni tadqiq etish usullarini qanchalik takomillashtirsak, ulug' shoir asarlari asliyati va tarjimalariga bergan bahomiz ham shunchalik to'g'ri va obyektiv bo'ladi.

**SCIENTIFIC IN THE PRESENCE OF URGANCH STATE UNIVERSITY
NAMED AFTER ABU RAYHAN BERUNI
DEGREE GRANTING PhD.03/30.12.2019.Phil.55.02 NUMBER
SCIENTIFIC COUNCIL**

URGANCH STATE UNIVERSITY

MATKARIMOV SAPARBOY RAJABOVICH

**COMPARATIVE ANALYSIS AND ARTISTIC CONTROVERSY OF
FRENCH TRANSLATIONS OF ALISHER NAVOY'S GHAZALS**
(based on the translation by Jean-Pierre Balp)

10.00.06 – Comparative literary studies, cross-linguistics and translation studies

**Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation in Philological Sciences
AUTHOR ABSTRACT**

Urganch – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number V2022.1.PhD/Fi2267.

The dissertation was completed at Urganch State University.

Dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) of the website of the Scientific Council www.urdu.uz and "Ziyonet" information and education portal www.ziyonet.uz placed at addresses.

Scientific leader:	Jumaniozov Zahid Otaboyevich candidate of philological sciences, associate professor
Official opponents:	Sariyev Sanatbek Matchanboyevich doctor of philological sciences, associate professor Jurayeva Malaxat Muhamedovna doctor of philological sciences, professor
Lead organization:	Uzbekistan University of World Languages

The defence of the dissertation will take place on "22" may 2025, at 9 : 00 at the meeting of the Scientific Council PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 at Urganch State University named after Abu Rayhan Biruni. (Address: 220100, Urganch city, str. Khamid Alimdjan, №14. Phone: (+99862) 224-67-00; fax: (99862) 224-67-00; e-mail: www.urdu.uz

The dissertation can be reviewed at the information-source Center of Urganch State University named after Abu Rayhan Biruni. (registered under No. D-794). Address: 220100, Khamid Alimjan Street, 14. Urganch. Phone: (99862) 224-67-00. email: arm@urdu.uz

The abstract of the dissertation was distributed on "29" april, 2025.

(Record of the digital register of 52 on "29" april, 2025).



D.Q. Goipov
Chairman of the scientific council that grants scientific degrees doctor of philological sciences (DSc), professor

S.S. Atajanov
Secretary of the scientific council that grants scientific degrees, doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, associate professor

A.D. Urazboev
Academic council that grants academic degrees the chairman of the scientific seminar, doctor of philological sciences (DSc), associate professor

INTRODUCTION (annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic

In world translation studies, the theoretical and practical bases of translation, principles, methods of translation, maintenance of alternation of form and content in translation, linguistic and extralinguistic features related to the translation of works of certain creators, problems in the translation of national color units, and in general, the specific features of translation are highlighted in various aspects. Considerable research work of Western translators in this regard has prepared the ground for today's research. It is known that the goal of the translation of each work is to accept the best works of art of a nation in its native language, to introduce its people to it, to creatively assimilate the best qualities of the culture of the brotherly nations, to use it in its literature. It is a means of translating and presenting works worthy of attention to other nations. The value of a work of art is determined by its content, that is, its ideological qualities, educational-educational significance, artistic-aesthetic properties. In this direction, the study of language units that make up the national identity of the original source, revealing the translation skill of the translator is considered one of the urgent issues of the theory of translation and the science of comparative linguistics.

In Uzbek translation studies, a number of scientific researches have been carried out on translations of A. Navoi's works into European languages, issues of compatibility of the original and translation, problems in translation and ways to solve them, translation criticism. Today, the expression of the originality and historicity of the original in the translation, the skill of the translator in this process, and the issue of word choice are considered as a scientific necessity. The issue of the translator's position in the translation of classic genres, as well as the linguistic-cultural and linguopoetic study of the translation of a literary work, is important in determining the specific aspects of translation studies and developing practical and theoretical rules of translation. In particular, scientific research on the translation of Alisher Navoi's ghazals into French, the translator's skill in ensuring the consistency of the translation units with the original, has not been carried out on a monographic basis. Our research is "realization of our national identity, our Motherland, to study the ancient and rich history, to strengthen scientific research in this regard, to provide comprehensive support to the activities of humanitarian scientists"⁷³ The necessity and importance of the topic of the dissertation is devoted to the methods of translation of the realities that express the similar and unique aspects of cultural units in the Uzbek and French languages.

President Sh.M. Mirziyoyev's speech "Alisher Navoi is needed today, we all need him, let's convey his every ghazal, every word to the people's spirituality and, moreover, to the whole world"⁷⁴, are another proof of the relevance of the chosen topic. No. PF-5847 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8,

⁷³Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev to the Oliy Majlis on December 28, 2018 on the topic "The intensity of our development path will increase again" [//URL: lex.uz/docs/5841063](https://lex.uz/docs/5841063). \\\\"People's Word" newspaper, December 29, 2018.

⁷⁴376- Number Decision.

